



IBN SINO HAYOTI VA UNING FALSAFADAGI MAQSADI VATA'SIRI

Islombek Yo'ldoshev Dona o'g'li

*SHahrisabz davlat pedagogika instituti ,Ijtimoiy fanlarni o'qitish
metodikasi ma'naviyat asoslari yo'nalishi 1-bosqich magistranti Email:
yuldoshevislombek6@gmail.com*

Annotatsiya: Bu ishda Ibn sino hayoti uning qanday ijtimoiy siyosiy muhitda o'sib ulg'aygani hayotida sodir bo'lgan hodisalar.Ularning buyuk qomusiy olimning ilmiy va hayotida qanday ta'sir o'tkazganini ko'rib chiqamiz , shuning dek ,Mutafakkirning falsafiy qarashlari uning sharq falsafasida tutgan o'rni nima sababdan falsafani rivojlantirish uni o'z oldida o'zgartirish va kengaytirishni maqsad qilib olganini o'rganamiz

Kalit so'zlar: Ibn Sino ta'limoti, Aristotel falsafasi, Avtobiografiyasi, gnoseologiya , islom ilohiyoti, aql – idrok.

Жизнь Ибн Сины, его предназначение и влияние на философию

Исламбек Юлдошев Дона углы

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Магистратура 1-го курса, специальность «Методика преподавания общественных наук, духовность» yuldoshevislombek6@gmail.com

Аннотация: В данной работе мы рассмотрим социально-политическую обстановку, в которой вырос Ибн Сина, события, произошедшие в его жизни. Мы рассмотрим, как они повлияли на научную и жизненную деятельность великого энциклопедиста, а также место, которое занимали философские взгляды мыслителя в восточной философии, почему он поставил перед собой цель развивать философию, изменять и расширять её.

Ключевые слова: учение Ибн Сины, философия Аристотеля, «Автобиография», эпистемология, исламское богословие, интеллект-восприятие.



THE LIFE IBN SINA AND HIS PURPOSE AND INFLUENCE ON PHILOSOPHY

Islambek Yuldoshev Dona uglu

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

*1st year master's student of the methodology of teaching social sciences,
the direction of spirituality yuldoshevislombek6@gmail.com*

Annotation: *In this work, we will consider the life of Ibn Sina, the socio-political environment in which he grew up, the events that occurred in his life. We will consider how they influenced the scientific and life of the great encyclopedist, and also study the place of the thinker's philosophical views in Eastern philosophy, why he set himself the goal of changing and expanding philosophy in order to develop it*

Keywords: *Ibn Sina's teachings, Aristotle's philosophy, Autobiography, epistemology, Islamic theology, intellect - perception.*

Kirish. Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh Ibn-Sino 970-1037 yillarda islom olamidagi eng yetuk faylasuf va tabib edi. Ibn Sino o'zining eng yaqin shogirdi Abu-Ubayd al Juzjoniylar uchun tarjimai holi kitobini yozishni boshlaydi. Al – Juzjoniylar uni davom ettirib, uztoz vafotidan so'ng uni milodiy 1037 yilda tugallaydi. Bu Avtobiografik asar Avitsenna hayoti va ijodi haqida eng qimmatli manbadir. Ushbu majmuaga ko'ra Ibn Sino X asrning 70 – yillarida, taxminan, 964 –yilda o'sha davrda somoniylar davlatining poytaxti bo'lmish Buxorining chekkasidagi Afshona qishlog'ida tug'ulgan. Uning otasi asli kelib chiqishi Balxdan bo'lgan u davlat amaldori edi Xarmaytxon tumani hokimi ede. Poytaxti Buxoro bo'lgan (819-1005) Xurosonda hukumronlik qilgan somoniylar sulolasiga yaqin bo'lgan. Ammo Ibn Sino yoshligidan Buxoro zaminida ulg'aydi ta'lim olgan va falsafiy faoliyatini Somoniylarga yaqin siyosiy elita sifatida boshlagan.

Buxoro buyuk ipak yo'lining asosiy savdo yo'llaridan biri bo'lib joylashgan shahar islomgacha ham gullab yashnagan X asrga kelib fors tilini



qayta tiklash shuningdek, islom olamining markazi bo'lmish Bag'doddan taralayotgan ilim fan shamoli maqsadi arab – islom madaniyatini targ'ib qilishni kuntartib qilgan Somoniylar davrida u san'at va ilm-fanni rivojlantirish uchun shart sharoitlari takomillashgan muhit yaratildi. O'smir Ibn Sino hukumdorni davolay olgani uchun Somoniylar saroy kutubxonasidan foydalanish uchun ruxsat berilgan, unda barcha mavzularga oid kitoblar bor edi, hatto yunonlarning arabcha tarjimasidagi manbalar ham bor edi. Bu Abbosiylar sulolasi Bag'dodga hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng 750-yildan siyosiy va ijtimoiy ishlarga ratsionalistik qarashlar tufayli yuzaga kelgan edi. Ibn Sino matematika fizika astronomiya etika, iqtisod, fanlarini yakka o'zi mustaqil ravishda o'rganganini takidlaydi. (Avtobiografiya)

Ko'p o'tmay o'zining birinchi asarini *Ruh to'g'risidagi to'plamini* yozadi u kutubxonaga tashrif buyurishga ruxsat bergani uchun to'liq asar hukumdorga bag'ishlangan. Yigirma bir yoshga to'lganda, Arudiy ismli do'sti undan barcha falsafa bo'yicha keng qamrovli asar yozishini so'raydi va buni u amalga oshirdi *Arudiy uchun falsafa* deb nomlangan asar yaratildi. Ibn Sino yuqorida aytilgan barcha fanlarni ko'rib chiqdi. Yana bir do'sti Baraqiy Aristotel asarlariga sharhlar so'radi va yigirma jildlik "*Mavjud va Valid*" asarini yozdi. Bu orada otasi vafot etgandan so'ng, Somoniylar moliya idorasida lavozim topishga majbur bo'ldi, lekin bilamizki, hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ammo tarix o'z ta'sirini ko'rsatdi, Avitsenaning xavfsiz ish joyi, intellektual shon shuhrat va vatandoshlarning hayratiga ega bo'lgan hayotiga barham berdi. 999 yilda turkiy qoraxoniylar Buxoroni bosib olib Somoniylar sulolasiga barham berdi. Avitsenna o'zining hukumron sulola bilan yaqinligi tufayli Buxorodan qochib ketishni lozim deb bildi. U uzining *Atobiografiyasi* da o'zining qarorini hechqanday siyosiy nizolar bilan bog'lamagan. Natijada Avitsennani butun umirlik sayohatchi bo'lishiga olib keldi. Birinchi yillari u Xorazm tomonlarga bordi gurganjning shimoliy tomonlariga (999-1024) baribir qochishga majbur bo'ldi bu safar g'arbga qarab yo'l oldi ozroq muddat Jurjonda yashadi undan so'ng Eronda bo'ldi 1014-1014 yillarda. So'ngra Isfahonda



yashadi 1024-1037 yillarda. Bu shaharlarda Ibn Sino siyosiy maslahatchi, shifokor, davlat xizmatchisi sifatida faoliyat yuritdi. Abbosiylar davrida 750-1050 yillarda davlat tomonida ilm fanga homiylik qilinar davlat ilmiy yutuqlarning asosiy iste'molchisi edi. Hukumdorlar uchun olimlarni qo'llab quvvatlash o'zlari uchun obru e'tibor jalib qilish vositasi haam edi shuningdek toj u taxtni ham ilm orqali o'zlariga qonuniylashtirib olar edilar. Aynan shuning uchun biz, o'zi istiqomat qilgan ko'plab shaharlarda ma'lum siyosiy va intellektual tortishuvlarga qatnashgan Ibn Sino siyosiy elitaga o'z bilimlaridan foydalangan holda ilmiy risolalar bilan ularni qo'llab quvvatlab yodam bergan. Bu davrda ilm fan ijtimoiy siyosiy hayot bilan kuchli bog'liqligi tufayli, uning islom dunyosida yashin kabi tarqalishiga va yuksalishiga muhim rol o'ynadi .

Oxirgi o'n uch yilini Ibn Sino Isfahondagi Alaad –Davlat saroyida Ibn Sino o'zini munosib his qilishini qadrladi. U eng qiyin davrlar urushlar siyosiy nizolar paytidaham asarlar va kitoblar yozishdan to'xtamadi. U o'zining eng muhim bo'lgan asari "*SHifo*" ya'ni *AL-SHifa* asarini va yana to'rtta falsafaga oid xulosasini, kichikroq bo'lgan risolarini yozib tugatdi. O'zining talabalari bilan fizika va metafizikaning turli xil nuqtalari haqidagi bashariyat oldida muhim bo'lgan savollarga chuqur javob izlash kuchli falsafiy tadqiqotlar olib bordi.

Buyuk qomusiy va mutafakkir olib Ibn Sino 1037 –yilda Hamadxonda vafot etadi va shogirtlari tomonidan shu yerda dafn etiladi. Ibn Sino falsafada o'z o'rniga va maqsadiga ega edi. Ibn Sino o'zining yetuklikka yetgan davrida yozilgan *Avtobiografiya* asarida uning mutafakkir sifatida shakllanishida o'ta muhim bo'lgan ko'plab masalalarga to'xtalib o'tadi. SHunga mosravishda o'zining falsafiy qarashlarini va maqsadlarini aytib o'tadi. Birinchi navbatda uning falsafiy bilimlari tuzilishini bir butunlik sifatida tushinish, u o'rgangan fanlar tasnifida o'z ifodasini topdi, ikkinchidan Somoniylar kutubxonasida o'tgan davrida ko'plab faylasuflarning kitoblarini o'qib bo'lgach, ularning yutuq va kamchiliklarini o'rgandi va o'z fikrini bildirdi va shuni tushundiki falsafani yangilash zarur uni o'zgartrish lozim deb bildi. Uchunchidan, uning avtodidakt bo'lishga ishora qilishi insoning o'z –o'zidan eng yuqori bilimlarni oqilona egallash qobiliyatiga



ko'proq urg'u berdi, shu bilan birga aql idrok ruhining barcha funksiyalarini va bilimlarini qanday egallashini (gnoseologiya) har tomonlama o'rganishga, shuningdek, uning kelib chiqishi, maqsadi, faoliyati va oqibatlarini o'rganishga olib keladi. SHunday qilib Ibn Sino falsafani alohida qismlarga bo'lib yoki vaqtiga qarab emas, yaxlit bir butunlik sifatida namoyon etishni va yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi: falsafani dolzarblashtirish: va inson ruhi uning bilim nazariyasi, mantiqiy metodologiyasi va samoviy va yer olamlari yoki ilohiy va insoniy munosabatlarning asosi sifatida bilishni o'rganish. Ibn sinoning falsafiy qarashlarida Aristotelning falsafiy fikrlari yotadi. Ayniqsa uning mantiqiy usullari va metafizik tafakkuri kiritilgan kiritilgan. U sabab – oqibatni tushunish uchun Aristotelning asoslaridan foydalangan, ammo islomiy ilohiyotni integratsiya qilish orqali uni kengaytirdi. Misol uchun u zaruriy mavjudot tushunchasini, zarurat bilan mavjud bo'lgan va barcha narsalarning asosiy sababi bo'lgan metafizik mavjudodni kiritdi. U Xudo bilan birlashtirgan bu mavjudod barcha mavjudodning manbai va yagona haqiqiy va abadiy haqiqatdir. Ibn Sinoning Aristotel tafakkurini islom ilohiyoti bilan sintez qilishni juda katta hodisa edi o'z davrining chunki, u aql va imon o'rtasidagi bo'shliqni ko'paytirdi va ikkalasi ham uyg'un holda birga yashay olishini ko'rsatdi. SHuningdek, Ibn Sino Aristotel tomonidan shakllantirilgan Xudo haqidagi zaif va asossiz nazariyalarni to'ldirdi. Unga ko'ra Yagona Xudodan dunyoga o'tish yo'q edi. Musulmon faylasuflarining fikriga ko'ra, Xudo o'zida va yaratilgan dunyodan yuqorida bo'lib qolgan bo'lsada, shunga qaramay, Xudoning mutloq abadiyligi va zarurati bilan aniq tasodifiy dunyo o'rtasida vositachi aloqalar mavjud edi. Bundan tashqari, bu nazariya musulmonlarning farishtalarga bo'lgan e'tiqodini qondirishga juda yaqin keladi. Bu musulmon faylasuflarining yunon falsafa an'alarini qayta ishlab chiqish orqali nafaqat oqilona tizim yaratishga, intilganliklarini eslatish uchun birinchi voqeadir. Ammo yana shunday qarama qarshiliklar mavjudki Aristotelning o'zi ham saqlanib qolgan asarida ziddiyatlar to'liq bo'lmagan muolajalar mavjud edi. Avitsennagacha bo'lgan islom an'alar ham bir xil emas edi, sababi eklektik al – Kindi va uning va uning shogirdlari, Bag'dodlik aristotelchilar va turli xil



falsafiy jihatdan yetuk ilohiyotshunoslarini ham qo'shish kerak ulardan biri qozi Abduljabbor, Ibn Sino bilan 1013-1015 yillarda Reyda uchrashgan. Bunday vaziyatda duch kelgan Avitsenna o'z oldiga falsafani ichki o'z o'zidan izchil va to'liq tizim sifatida, an'anadagi xatolarni tuzatish, asossiz dalillar va fikrlarni yo'qilishni, boshqalarning e'tiborini keskinlashtirish, muhokama qilinadigan mavzularni kengaytirilishi va qo'shish orqali butun voqelikni hisobga oladigan va mantiqiy tekshirilishi mumkin bo'lgan qayta ko'rib chiqish va yangilash vazifasini qo'ydi.

Falsafani nazariy va amaliy qisimlariga eng shoshilinch ravishda qo'shilishi kerak bo'lgan soha, agar uning tizimi butun voqelikni hisobga oladigan bo'lsa, bu diniy hayotining barcha ko'rinishlari va paranormal hodisalar edi. Ibn Sinoga ko'ra Aristotelning vorislari u qoldirgan bo'shliqlarni bartaraf etish va u qurgan narsada topilgan har qanday buzilishlarni to'g'rilash va xulosalar chiqarishlari lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Buyuk alloma Ibn Sinnoni hayotini va ijodini o'rganish jarayonida juda ko'plab ilmiy maqolalar va ga'rb va sharq olimlarining fikri va asarlari o'rganildi. Ushbu jarayonda birinchi navbatda ularda keltirilgan ma'limotlarni to'g'riligi va ishonchliligi tahlil qilindi. Ular foydalangan manbalar o'rganildi. 2014-yilda, Nyu-york Kolumbiya universiteti nashriyoti tomonidan maqola chop etildi. Bu manba Avitsennaning ilmiy faoliyatini uning fikr mulohazalarini va nasihatlarini ilmiy mushohadalarini keng yoritib olim haqidagi uning merosini kengroq va obymaektiv ochib berdi. Manba mavzuni hozirgi zamondagi muamolarni ham yechish va bartaraf etish uchun ham muhim bo'lishi lozim. Manba eski usullardan qochib yangi yondashuvlar bilan mavzuni ochib beradi. Yana bir manba Dmitriy Gustas ibn sino haqidagi ilmiy izlanishlari unda zamonaviy usullardan fodalanilgan ilmiy izlanishlari o'z isbotini va boshqa manbalarga nisbatan ishonchliligi bilan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqot Ibn Sinoni hayoti uning ijodini rivojlanishini o'rganish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanadi. Tadqiqotning poydevori yirik olimlar Dmitriy Gustas, Ibn Sino, Fozil



Rahmon , ilmiy izlanishlar uchun muhim bo'lgan internit saytlar
<https://plato.stanford.edu/entries/al-farabi/>

❖ Tadqiqotning vazifalari Ibn sinoning hayoti va tarixiy davrini o'rganish uning asarlarida asosiy falsafiy g'oyalarni tahlil qilish ibn sino falsafasini sharq va g'arb falsafasidagi ta'sirini aniqlash

❖ Tadqiqotning predmeti va obyekti Obyekti Ibn Sinoning falsafiy merosi predmeti esa Ibn Sinoning g'oyalari maqsadlari asarlari

❖ Qiyosiy tahliliy usuli Bu usulda olimning qarashlari o'rganiladi uning aristotel falsafasidagi g'oyalarni qiyoslab o'rganadi va munosabatini bildiradi. Natijada Ibn Sinoning falsafiy tizimning o'ziga xosligi, yangiliklari va tarixiy ahamiyati ochib beriladi

❖ Manba tahlili va matinshunoslik metodi. Tadqiqotda Ibn Sino asarlari va boshqa olimlarining ilmiy izlanishlari ularning maqolalari va o'rganiladi. Misol uchun Avtobiografiyasi o'rganildi. Bu metodlar orqali matnlardagi asosiy falsafiy kategoriyalar ilmiy mezonlar orqali tahlil qilindi.

❖ Tahlil va sintez metodi Tadqiqot davomida Ibn Sinoning hayoti va ilmiy muhiti bo'yicha faktlar tahlil qilinadi uning falsafiy va ilmiy qarashlari esa sintez qilingan, ya'ni yagona tizim sifatida umumlashtirilgan. Bu metod tadqiqotning mantiqiy yaxlitligini ta'minlaydi. Ilmiy – obyektiv Tadqiqotda ilmiy xolislik tamoyilliga amal qilindi. Tarixiy faktlar tekshirilgan, g'oyalar zamonaviy ilm fan kontekstida talqin qilingan subyektiv baholardan qochilgan.

Tahlil va natijalar: Ibn Sino juda erta yoshligidan ilimga bo'lgan favqulodda qobiliyati tufayli Somoniy hukumdorlar nazariga tushgan va saroyda ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan uning rivojlanishidagi yana bir sabab islom olamida ratsional bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshishi, shu bilan bir qatorda olim zodagon oilada voyaga yetdi uning bilim olishi uchun hamma sharoitlar mavjud edi. Ibn Sinoning falsafaga qiziqishini muhim sabablaridan biri u saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat olgan edi u yerda falsafaga oid yunon faylasuflarining asarlarini arabcha tarjimalarida o'qib o'rgandi. Aristotel asarlari



uning falsafaga qiziqishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ijodiy mustaqillik va tanqidiy fikr u mavjud ilmiy qarashlarni ko'r-ko'rona qabul qilmay tajribaga va mantiq orqali qayta tekshirgan. Ibn Sino gnoseologiya va metafizika sohalarida mukammal falsafiy tizim yaratdi. Uning zaruriy va mumkin vujud haqidagi ta'limoti Sharq va Garb falsafasidagi birdek ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari musulmon shariqda ham, o'rta asr yevropasida hamm asosiy darslik sifatida ishlatilgan u yaratgan falsafiy va tibbiy tizim o'sha davrning eng yetuk ilg'or ilmiy merosiga aylangan.

Xulosa: Ibn Sino sharq uyg'onish davrining eng buyuk allomalaridan biri bo'lib, u hayoti davomida ilmni eng oliy qadriyat deb bildi inson aqlining imkoniyatlari va bilish jarayoning mohiyatini chuquqr tahlil qilgan. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, Ibn Sinoning ilmiy merosi hozir ham eng kerakli manba bo'lib qolmoqda uning falsafiy qarashlari butun musulmon ilmiy sivilizatsion taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Aristotel asarlarini tahlil qilib undagi falsafiy maqsadlarni o'rgandi va uning kuchsiz fikrlarini kengaytirdi va kamchiliklarini bartaraf etdi. O'zining oldiga qo'ygan falsafiy masalalarini rivojlantirib ularning isbotini berdi. Uning ilmiy yutuqlari yevropa uyg'onish davri uchun poydevor bo'ldi. Sharq falsafiy tafakkurini shaklantirgan ilmiy maktab yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullaev / Ergashev / Karimov kabi O'zbek ilmiy-tadqiqotchilarining maqolalari (1990–2020): “Ibn Sino va Markaziy Osiyo ilmiy merosi”
2. Akram Sohobov Rustamovich and Khurramova Bibikhonim Dilshod kizi AMERICAN Journal of Science on Integration and Human Development Volume 3, Issue 11, 2025 ISSN (E): 2993-2750 Enhancing Pedagogical-Technological Competence: A Framework for Modern Teachers in a Digital Age
3. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashrlari: tarixiy-falsafiy yo'nalishdagi maqolalar va monografiyalar (Ibn Sino, tibbiyot va falsafa bo'yicha).
4. Pormann, P. E., & Savage-Smith, E. Medieval Islamic Medicine.



5. Marmura, M. E. (tarjimon/taqdimot). The Metaphysics of Avicenna — tarjimalar va izohlar to‘plami.
6. Khurramova Bibikhonim Dilshod kizi Enhancing Pedagogical-Technological Competence: A Framework for Modern Teachers in a Digital Age Journal of Science on Integration and Human Development *www. grnjournal.us Volume 3, Issue 11, 2025 ISSN(E): 2993-2750*
7. <https://plato.stanford.edu/entries/al-farabi/>
8. <https://www.sciencedirect.com/>